ALI SAFIY ILMIY MEROSIDA BORLIQ VA BILISH MASALALARINING FALSAFIY TALQINI

Mavlyanov Umid Nasriddinovich
Guliston davlat universiteti Tarix kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar davrining ko‘zga ko‘ringan diniy va ilmiy arbobi, Xoja Ahrorning izdoshi va shogirdi, Husayn Boyqaro davlatida xos voiz sifatida faoliyat yuritgan Faxruddin Ali Safiyning ilmiy merosida borliq hamda bilish muammolarining qo‘yilishi va talqin etilishi tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning ontologik qarashlari, “Vojib ul-vujud”, “Mumkin ul-vujud”, “Vahdat ul-vujud”, “Vahdat ul-mavjud” va “Vahdat ush-shuhud” kabi tushunchalarga munosabati yoritiladi. Shuningdek, Ali Safiy qarashlarida hissiy, aqliy, naqliy va irfoniy bilish shakllarining o‘zaro aloqadorligi, ularning diniy-falsafiy tafakkur tarixidagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada allomaning borliq va bilish haqidagi qarashlari o‘z davrining diniy-irfoniy an’analari bilan uyg‘un bo‘lishi bilan birga, ilmiy-falsafiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Ali Safiy, borliq, vujud, Vojib ul-vujud, Mumkin ul-vujud, vahdat ul-vujud, vahdat ul-mavjud, hissiy bilish, aqliy bilish, irfoniy bilish, tasavvuf, ontologiya, gnoseologiya.

Ali Safiyning bizgacha yetib kelgan asosiy asarlarini tadqiq va tahlil etish mutafakkirning metafizika, tasavvuf nazariyasi, adab ilmi hamda bilish nazariyasiga oid fikr-mulohazalarini ilmiy jihatdan umumlashtirish imkonini beradi. Uning ilmiy merosida borliq va bilish masalalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Bu jihat, avvalo, Ali Safiyning diniy-irfoniy qarashlari bilan falsafiy tafakkur an’analarini uyg‘unlashtirishga intilganida namoyon bo‘ladi.

Ali Safiy ontologiya, ya’ni borliq masalasiga murojaat qilganda, o‘zini samimiy va chin ixlosli sunniy musulmon sifatida namoyon etadi. U Alloh vujudining haqligi, faqat Uning boqiy va mutlaq mavjudlik egasi ekanligi, bu dunyodagi barcha narsa, hodisa va jarayonlar esa o‘tkinchi borliq sifatida mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Mutafakkir talqinida inson va olam borlig‘i mustaqil, o‘z-o‘zidan mavjud substansiya emas, balki haqiqiy borliq bo‘lgan ilohiy vujudga bog‘liq holda tushuntiriladi.

Ali Safiy qarashlarida Alloh haqiqiy borliq — substansiya sifatida talqin qilinadi. Biz ko‘rib turgan olam, ya’ni “Mumkin ul-vujud” esa haqiqiy va mutlaq borliq emas, balki “Vojib ul-vujud”ning namoyon bo‘lishi, unga bog‘liq holda mavjud bo‘lgan o‘tkinchi borliq sifatida izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan mutafakkir borliqni tushunishda tasavvufiy-falsafiy qarashlarga tayanadi. U “Vahdat ul-vujud”, “Vahdat ul-mavjud” va “Vahdat ush-shuhud” kabi tushunchalarni sanab o‘tib, ularning mohiyatini izohlashga harakat qiladi.

Borliq muammosini tushunish, ta’riflash va talqin etishda Ali Safiy sufiylar bilan hukamolar o‘rtasidagi farqli yondashuvlarni ham alohida qayd etadi. Faylasuf-hukamolar, xususan, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Umar Hayyom va boshqa mashshoiylar qarashlarida “Vojib ul-vujud” bilan “Mumkin ul-vujud” o‘rtasida tub farq mavjud. Ularning talqinida birinchisi sabab, asos, yaratuvchi va harakatga keltiruvchi kuch bo‘lsa, ikkinchisi oqibat, yaratilgan va harakatga keltiriluvchi borliq sifatida namoyon bo‘ladi.

Ali Safiyning borliq haqidagi qarashlarida bu dunyo va u dunyo, qadim va hodis, jismoniy olam va ruhoniy olam, ilohiy nur va uning ahlulloh vakillarida tajalliy etishi kabi murakkab masalalar ham muhim o‘rin tutadi. Mutafakkir ilohiy nurning bu olamga fayzi, suduri, piri murshid vujudi va hol tushunchalari orqali inson ruhiy kamolotini tushuntirishga intiladi. Bu qarashlar tasavvufiy tafakkurning chuqur qatlamlari bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda ham falsafa, dinshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Ali Safiy o‘z salaflarining diniy-irfoniy va falsafiy qarashlarini vorisiy asosda rivojlantirgan. Biroq uning nazariy-metodologik pozitsiyasi rasmiy “Ahli sunna val-jamoa” aqidalari doirasida shakllangan bo‘lib, unda obyektiv idealizm va kreatsion dunyoqarash yetakchi mavqeni egallaydi. Shu bilan birga, Ali Safiy tasavvufdagi vujud muammosini Xudo, olam va inson borlig‘i munosabati orqali izohlashda Imom G‘azzoliy va Ibn Arabiy kabi mutafakkirlar qarashlaridan samarali foydalangan.

Ali Safiyning olam va uning qonunlarini bilish yo‘llari, usullari va vositalari haqidagi qarashlari ham diniy-ilohiy, diniy-irfoniy va dunyoviy ilm-fan nuqtayi nazaridan muhimdir. U bilish masalasini faqat aqliy tafakkur doirasida emas, balki naqliy va irfoniy bilimlar bilan bog‘liq holda ham tahlil qiladi. Shu sababli

mutafakkir qarashlarida bilish jarayoni keng qamrovli, ko‘p bosqichli va murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaga ko‘ra, Ali Safiy bilish sohalari va jarayonlarini uch katta yo‘nalishda ko‘rib chiqadi. Birinchisi — aqliy va hissiy bilish bo‘lib, u insonning sezgi a’zolari, tafakkuri, mantiqiy mushohadasi orqali voqelikni anglashini ifodalaydi. Ikkinchisi — naqliy bilish bo‘lib, u Qur’on oyatlari, hadislar, tafsir, fiqh va diniy manbalar orqali beriladigan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Uchinchisi esa avliyolar, “ahli rijol” yoki “ahli kashf”ga xos bo‘lgan bevosita ko‘rish, zavq, jazba, muroqaba, piri murshid tarbiyasi va tasarrufi orqali yuzaga keladigan irfoniy bilimlardir.

Ali Safiyning “Latoyif ut-tavoiyf”, “Rashahot ayn ul-hayot” va boshqa asarlarida gnoseologiya hamda epistemologiyaga oid zukko mulohazalar, hayotiy misollar, mantiqiy xulosalar va hikmatlar ko‘p uchraydi. Uning qarashlarida ilmga shubha bilan qarash yoki inson aqli va irodasining dunyoni bilish imkoniyatlarini inkor etuvchi agnostik yondashuvlar deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, mutafakkir inson o‘zini, olamni va ilohiy sifatlarni o‘z aql-zakovati, ruhi va ma’naviy kamoloti orqali anglay olishi mumkinligiga ishonadi.

Ali Safiy ratsional va dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda diniy-ilohiy, tasavvufiy-irfoniy va irratsional bilimlarni ham chuqur egallagan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Uning “Latoyif ut-tavoyif” asarida mantiq, falsafa, tabiatshunoslik va yunon ilmlari bilan bog‘liq mulohazalarning uchrashi allomaning bu sohalardan ham yaxshi xabardor bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa Ali Safiyning ilmiy merosini faqat diniy-irfoniy doirada emas, balki keng falsafiy tafakkur kontekstida o‘rganish zarurligini anglatadi.

Ayni paytda Ali Safiy o‘z davrining farzandi sifatida g‘ayri aqliy, ya’ni naqliy va irfoniy bilish darajasini formal-mantiqiy bilishdan yuqori qo‘yadi. U ilmni juda keng ma’noda talqin qilib, unga aqliy, naqliy, irfoniy, vasl-nazar va assotsiativ tafakkur usullarini ham kiritadi. Mutafakkir mantiq, kalom, tafsir, ta’vil, arab tili, rasmiy va zohiriy ilmlar, shuningdek, yunon falsafasi va tabiatshunoslik ilmlarini egallamasdan turib inson ma’rifiy kamolotga erisha olmasligini alohida ta’kidlaydi.

Ali Safiy ma’nosiz bahs-munozaralarga ham tanqidiy munosabat bildiradi. Uning fikricha, ilm, falsafa va mantiq sohasidagi cheksiz, natijasiz va ko‘pincha sxolastik bahslar inson aqli va bilish qudratini isrof qilishga olib keladi. Bu jihatdan Ali Safiyning qarashlari ilmiy tafakkurda mazmun, maqsad va amaliy natijadorlikning ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Ali Safiyga ko‘ra, bilishning g‘ayri aqliy va aqliy bilish darajasidan yuqori turuvchi irratsional ko‘rinishlari ham mavjud. U “ilmi laduniy”, “ilmi hol”, “ulumi naqliy”, “ilmi kashf”, “ulumi botiniy”, “avliyolar ilmi”, “jazbai uluhiyat”, “hikmati ilohiy”, “ilmi nazar”, “haqq ul-yaqin”, “ilmi botin”, “qo‘ldan-qo‘lga beriladigan ilm”, “Alloh taoloning o‘z ilmi”, “ilmi muroqaba”, “ilmi robita” kabi tushunchalarni keltirib, ularning mazmunini ochishga intiladi. Bu bilim turlarini muayyan tizimga solish, ularni tasniflash va ilmiy jihatdan tahlil qilish alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, Ali Safiy o‘z salaflarining diniy-irfoniy va falsafiy qarashlarini davom ettirgan holda, borliq va bilish masalalariga o‘ziga xos yondashuvni ilgari surgan. Uning nazariy-metodologik pozitsiyasi “Ahli sunna val-jamoa” aqidalari doirasida shakllangan bo‘lsa-da, unda tasavvufiy tafakkur, falsafiy tahlil va gnoseologik qarashlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Ali Safiyning borliq haqidagi qarashlari Xudo, olam va inson munosabatlarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lsa, bilish haqidagi mulohazalari inson tafakkuri, diniy manbalar va irfoniy tajribaning o‘zaro aloqadorligini ochib beradi. Shu sababli uning ilmiy merosi o‘zbek va musulmon falsafasi tarixida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт: Обҳаёт томчилари. — Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. — 536 б.
2. Mavlyanov U.N. Fahruddin Ali Safi’s teaching about being // Bulletin of Gulistan State University. — 2021. — № 2. — P. 61–67.
3. Мавлянов У.Н. Проблемы онтологии в наследии Али Сафи // Вестник Российского философского общества. — 2020. — № 1–2. — С. 200–209.
4. Mavlyanov U.N. Jizn i tvorchestvo Ali Safi // Nauka i obrazovanie segodnya. — 2018. — № 1 (24). — S. 42–44.
5. Mavlyanov U. About “The Art Academy of Baysunkur” // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. — 2022. — Vol. 2, № 06. — P. 133–138.
6. Mavlyanov U.N. Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. — 2020. — Vol. 7, № 7. — P. 540–545.
7. Mavlyanov U.N. Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi // Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. — 2023. — Vol. 3, № 07. — P. 41–43.